

BOSHQARUV QARORI2023y. "19" *aprel*№ *42/2*

Toshkent sh.

Yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banking Etika kodeksi" qabul qilish to'g'risida

Xalq banki tomonidan 2023-yilda transformatsiya yo'nalishida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha Yo'l xaritasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash maqsadida hamda bank Ustaviga muvofiq, bank Boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. Bankning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan ichki me'yoriy hujjatlarning amaldagi qonunchilikka mosligini ta'minlash bo'yicha Ekspert guruhining 2023-yil 7-apreldagi 17-sonli bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Bankning yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banking Etika kodeksi" ilovaga muvofiq ma'qullansin.
3. **Korporativ boshqaruv xizmati** (T. Li) zimmasiga Kuzatuv kengashining navbatdagi majlisi kun tartibiga mazkur hujjatni tasdiqlash uchun kiritish vazifasi yuklatilsin.
4. "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banking Etika kodeksi" Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan e'tiboran, bank Boshqaruvining 2020-yil 28-fevraldagi 26/3-sonli va 2020-yil 8-oktabrdagi 115/3-sonli qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
5. **Ijro nazorati departamenti** (F. Kurbanov) mazkur qaror nusxasini bankning barcha tarkibiy bo'linmalariga ma'lumot hamda ijro uchun yetkazilishini ta'minlasin.
6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish **Boshqaruv Raisi o'rinbosari T. Raxmonov** zimmasiga yuklansin.

Boshqaruv Raisi**Sh. Atabayev**

Ilova
Loyiha

“MA’QULLANGAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki
Boshqaruvining
2023-yil 19 -apreldagi
42/2-sonli qarori**

“TASDIQLANGAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki
Kuzatuv kengashining
2023-yil __-apreldagi
__-sonli majlis bayoni**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKINING
KORPORATIV ETIKA KODEKSI**

Toshkent – 2023

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining Korporativ etika kodeksi (keyingi o‘rinlarda – “Kodeks” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami 3254, 30.06.2020 y.) Nizom va Bazel qo‘mitasining standartlari va tavsiyalarida belgilangan talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Korporativ etika kodeksi (keying o‘rinlarda – Bank) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ huquqiy hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki (keying o‘rinlarda – Bank) Ustaviga asosan xodimlarga bank biznes etikasi, shuningdek, ayrim huquqiy yoki axloqiy jihatlar bo‘yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi tomonidan ushbu Kodeksga rioya qilinadi, shuningdek, axloq tamoyillari buzilgan taqdirda, oqibatlarini aniqlash maqsadida ushbu Kodeksga amal qilinadi.

2. Korporativ etika – bu ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan etika va axloqiy tamoyillarni yoki axloqiy muammolarni hal qiluvchi kasbiy etikaning bir shakli hisoblanadi. Bu biznes yuritishning barcha jihatlariga taalluqlidir va umuman Bankning hamda har bir xodimning xatti-harakatlari bilan bog‘liqdir:

Bankning bosh maqsad:

O‘zbekiston xalqi va tadbirkorlarini moliyaviy maqsadlariga erishishida qo‘llab-quvvatlovchi yetakchi bank bo‘lish.

Bank missiyasi

Bank Mijozlari

Bank mijozlari bilan ishonchli va uzoq muddatli munosabatlarni o‘rnatish va qulay an‘naviy hamda raqamli kanallar orqali keng ko‘lamli, yuqori sifatli bank mahsulotlari va xizmatlarini taklif etish.

Jamiyat

Bank xizmatlari ommabopligini oshirish orqali mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shish va ayollar tadbirkorligini qo‘llab quvvatlash.

Xodimlar

Aksiyadorlar

Aksiyadorlar ishonchini oqlaydigan, ularning mablag'lari daromadlilikini ta'minlaydigan, shaffof va mustaqil, xalqaro talablarga mos korporativ boshqaruv tizimini yaratish.

Bank qadriyatlari:

Bankning qadriyatlari uning korporativ madaniyatining asosiy elementidir. Bu xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini, ish prinsiplari, hamkasblar va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni namoyon etuvchi qadriyatlardir, shuningdek, butun jamoa ishining samaradorligi qadriyatlarga bog'liq hisoblanadi. Jumladan:

Birinchi navbatda mijoz – mijozlarga Bank bilan ijobiy muloqot tajribasini taqdim etish tashabbusi.

Ishonchlilik – olingan majburiyatlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash.

Extiyotkorlik – biznes rentabelligini inobatga olgan holda risklarni boshqarish.

Jamoa bo'lib ishlash – hamjihatlik, qo'llab-quvvatlash va o'zaro yordam – qarorlarni birgalikda qabul qilishda hamkorlik qilish.

2-bob. Kodeksning tadbiiq etish sohalari

3. Ushbu Kodeks Bankda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar yoki Bankning biznes hamkorlari uchun amal qiladi.

3-bob. Kodeksning asosiy qismi

4. Kodeks Bank uchun qo'llaniladigan standartlarga asoslanadi. Mazkur Kodeks O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun va me'yoriy xujjatlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning barcha xodimlari o'z xizmat vazifalarini to'g'ri amalga oshirishlari uchun ushbu xujjat bilan tanishib chiqishlari lozim.

5. Shu bilan birga, xodimning xatti-harakati yoki muayyan xatti-harakatni amalga oshirishi Bankning kasbiy etikasiga yoki amaldagi qonunchilikka zid bo'lgan taqdirda, Bankda intizomiy choralari qo'llanilishi to'g'risida aniq ko'rsatmalar mavjud.

6. Bank xodimlariga ushbu hujjat bilan to'liq tanishishlari va savol yoki tushunmovchiliklar vujudga kelganda, bo'linma rahbari yoki xodimlarni boshqarish bo'linmasining mas'ul xodimi bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

4-bob. Kasbiy etika tamoyillari

7. Kodeks quyidagi umumiy tamoyillar va qadriyatlarga asoslanadi:

O'zaro hurmat. Bankni ish beruvchi sifatida hurmat qilish va Bank mijozlari va hamkorlariga hurmatda bo'lish. Insonlarga samimiy munosabatda bo'lish va irqi, millati ijtimoiy kelib chiqishi va maqomidan qat'iy nazar huquq va erkinliklarini hurmat qilish.

Halollik va tartiblilik. Rost so‘zlash, har qanday qonun buzilishlardan tiyilish va manfaatlar to‘qnashuvidan saqlanish.

Adolatlilik. Adolat, halollik, mas’uliyat, va boshqalarni noqulay ahvolga solib qo‘ymaslik bank xodimining asosiy jihatlaridan biridir.

Qonunchilik. Qonunchilikni, shuningdek, Bankning ichki normativ hujjatlarini bilish va unga doimo rioya qilish.

Professionalizm va hisobdorlik. Mehnatsevarlik va ishga mas’uliyat bilan yondoshish.

Jamoaviy ishlash. O‘zaro hurmat va yordam ko‘rsatish, ochiqlik va xayrixohlik tamoyillari asosidagi hamkorlik.

O‘zaro hurmat

8. Barcha xodimlar ular bilan muloqotda bo‘lgan har bir kishini hurmat qilishlari kerak. Xodimlar mehribon, muloyim bo‘lishi va holatni tushunishlari lozim. Ular boshqalarning shaxsiy hayotini, fikrlarini va shaxsiy hududni hurmat qilishlari kerak. Har qanday zo‘ravonlik qat’iyan man etiladi va unga yo‘l qo‘yilmaydi.

9. Xodimlarga boshqalarni kuzatish va ta’qib qilish taqiqlanadi. Agar mijoz, hamkasblardan biri yoki manfaatdor tomonlar biron bir xodimni haqorat qilsa, kamsitsa yoki tahdid qilsa, bu haqda darhol Xodimlarni boshqarish bo‘linmasiga yoki rahbariga xabar berish kerak.

Halollik va tartiblilik

10. Barcha xodimlar Bank missiyasini tushunishlari va aniq natijalarga erishish uchun birgalikda harakat qilishlari lozim. Ularning harakatlari moliyaviy yoki tashkiliy jihatdan umumiy maqsadlarga va muvaffaqiyatga erishishga yordam berishi zarur.

11. Xodimlarning xatti-harakatlari boshqa shaxslarning faoliyatiga ta’sir qilganda (xususan, strategik qarorlarni qabul qilish yoki ishdan bo’shshga qaror qilish kabi holatlarda), to‘g‘ri va ochiq-oydin bo‘lishi kerak. Bank g‘arazli, aldanchi yoki odobsiz xatti-harakatlarni ma’qullamaydi. Yolg‘on va firibgarlik – qalin qizil chiziqlar hisoblanib, agar xodim bu chiziqlarni kesib o‘tsa, ularga nisbatan yetkazilgan zararga qarab, ishdan ozod etishgacha bo‘lgan jiddiy intizomiy choralar qo‘llanilishi mumkin.

12. Bank yoki boshqa shaxslarning mulkini o‘zlashtirish noqonuniy hisoblanadi. Agar o‘g‘rilik holati xodim tomonidan amalga oshirilganligi aniqlansa, xodim amalga oshirgan xatti-harakatlarining og‘irligiga qarab, ma’lum oqibatlarga olib keladi. Har bir holat bo‘yicha qarori qabul qilish belgilangan tartibda Bank rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi.

Adolatlilik

13. Hech kim o'zgalarni ekspluatatsiya qilishi, o'zgalarning yutuqlarini o'zlashtirishi va xatolaridan o'zining shaxsiy maqsadlarida foydalanishi mumkin emas. Barchaga teng imkoniyatlar, shu jumladan, boshqalar tomonidan to'sqinlik (xalaqit) qilinmagan holda o'z fikrlarini bayon qilish imkoniyati beriladi.

14. Boshqa shaxslar faoliyatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilishda, jumladan, ishga joylashish, lavozimga ko'tarilish yoki lavozimdan ozod etish to'g'risida qarorlar qabul qilish jarayonida xolis bo'lish talab etiladi. Har qanday shaxs o'z qarorini yozma ravishda ifoda etishi mumkinligiga ishonch hosil qilishi lozim. Har qanday holatda eng maqbul usullarni topishi va qo'llashi kerak, xususan, nomzodlar bilan suhbat jarayonida, ularning barchasiga o'xshash savollar beriladi va ish bilan bog'liq bo'lmagan mezonlar (tashqi ko'rinish, kiyinish va boshqalar) baholanmaydi.

15. Barcha uchun davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga olingan shaxslarni kamsitish taqiqlanadi va bu qonun bilan qat'iy belgilangan.

Bank xalqaro moliya institutlarining gender tengligi bo'yicha barcha tavsiya va takliflarini o'rganishi, gender tengligini ta'minlash bo'yicha ijobiy tajribalarni bankda qo'llashi lozim.

16. Rahbarlar tomonidan xodimlarni taqdirlash yoki rag'batlantirishda adolatlilik, yetarli darajada ochiq bo'lishi hamda aynan bir xodimga nisbatan alohida e'tiborli (favorvatizm) bo'lmaslik kerak. Shuningdek, bankda bir-biriga bo'ysinuvchi qarindosh xodimlarning faoliyat yuritishini taqiqlanishi nazarda tutilgan qarindosh xodimlarni ishga olinishi bo'yicha ichki siyosatga rioya qilinishi zarur.

17. Agarda rahbar xodimga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llashiga to'g'ri kelganda, bu bo'yicha xodimlar bilan ishlash bo'linmasiga murojaat qilishdan avval yetarli darajada asoslarga ega ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim. Xodimlarga yoki nomzodlarga nisbatan ta'qib choralarini qo'llash mumkin emas va bu qonunchilik bilan taqiqlangan.

18. Xodimlar bank mijozlari yoki hamkorlari bilan halol va adolatli munosabatda bo'lishlari kerak. Bank yuqori standartlarga muvofiq professional xizmat ko'rsatishga, har bir mijoz uchun imkon qadar individual yondoshishga harakat qiladi. Bankning har bir xodimi o'z ishining natijalari uchun shaxsan javobgar hisoblanadi, xatolarni tan olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun mavjud qiyinchiliklarni tezda bartaraf etish choralarini ko'rishi va xulosalar chiqarishi lozim.

Qonunchilik

19. Barcha xodimlar bank qonunchiligiga rioya qilishlari shart. Xodimlar lavozimlari va faoliyat yo'nalishlariga qarab turli qonunlar va me'yoriy hujjatlarni bilishlari hamda ularda belgilangan talablarga rioya qilishlari zarur.

20. Bank xodimlari konfidensial va shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash siyosatiga rioya etishlari shart. Tijorat va bank siri hisoblangan yoki mijozlar, xodimlar va manfaatdor shaxslarning konfidensial va shaxsiy ma'lumotlarini xodimlar tomonidan tarqatilishi, saqlanishida sovuqqonlik va e'tiborsizlik qilinishi ta'qiqlanadi. Xodimlar kiberxavfsizlik siyosatiga rioya qilishlari lozim.

21. Qonunchilikda belgilangan firibgarlik, poraxo'rlik, korrupsiya va zo'ravonlik kabi jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymasligi va uning oldini olish choralari ko'rishi shart. Shuningdek, xodimlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tmagan korxonalar yoki tashkilotlar bilan ish amaliyotlarini amalga oshirmasligi lozim.

22. Xodim muayyan bir ish (holat) bo'yicha xatti-harakatlar noqonuniy ekanligiga ishonch xosil qilishi uchun xodimlarni boshqarish bo'linmasiga, yuridik bo'linga yoki komplayens nazoratiga bu haqda murojaat qilishdan tortinmasligi kerak.

Manfaatlar qarama-qarshiligi

23. Manfaatlar qarama-qarshiligi turli holatlarda vujudga kelishi xususan, xodimning muayyan obyektga bo'lgan qiziqishi va xatti-harakatlari Bank uchun zararli bo'lgan oqibatlarga olib kelgan taqdirda, manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishi mumkin. Bunda xodim tomonidan shaxsiy manfaat yo'lida mansab lavozimini suiste'mol qilishi yoki shaxsiy daromad orttirish maqsadida Bank mablag'laridan o'zining biznesini qo'llab-quvvatlash jarayonida foydalanish kabi holatlar kiradi.

24. Agar xodim o'ziga nisbatan manfaatlar qarama-qarshiligini yuzaga keltirganligi aniqlansa, unga nisbatan lavozimidan ozod etish chorasini qo'llaniladi. Agar manfaatlar qarama-qarshiligiga olib keluvchi holatlar beixtiyor vujudga kelgan bo'lsa (misol tariqasida, xodim ushbu kompaniya Bankning raqobatchisi ekanligini bilmagan holda kompaniyaning aksiyalarini sotib olgan bo'lsa), unda Bank tomonidan vaziyatni to'g'rilash choralari ko'riladi. Bunday holatlar takrorlangan taqdirda, xodim ishdan ozod etilishi mumkin.

Professionalizm va hisobdorlik

25. Barcha xodimlar o'z ishlarini sidqidildan, vijdonan va professional darajada bajarishlari lozim. Xodimlar nafaqat Bankning muvaffaqiyati uchun mas'ul hisoblanadi, balki ularning o'z majburiyatlariga e'tiborsizligi hamkasblarining ishiga ta'sir etishi mumkin. To'liq tugallanmagan yoki belgilangan muddatda bajarilmagan ishlar boshqa xodimlarning ishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki ular uchun qo'shimcha ish hajmini ortishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'zaro hurmat va halollik tamoyillariga bevosita zid hisoblanadi.

26. Bank o'z xodimlaridan bilim olish va rivojlanish uchun ish joyida o'quv materiallari yoki treninglar orqali taqdim etilgan va yaratilgan imkoniyatlardan

foydalanishning ijobiy natijalarini kutadi. Agar xodim bunga qanday erishishi mumkinligini bilmagan taqdirda, buni rahbari bilan ochiq muhokama qilishi lozim.

27. Shu bilan birga, barcha xodimlar o'z harakatlari uchun javobgar hisoblanadi. Agar ish jarayonida va muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinishida xatoliklar tizimli xarakterga ega bo'lgan taqdirda, bu xodimni lavozimdan ozod etilishiga sabab bo'lishi mumkin. Agar xodim mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, xatoliklarni bartaraf etish imkonini topgan taqdirda, xodim tushib qolgan noqulay vaziyat yaxshilanishi mumkin.

Jamoaviy ishlash

28. Jamoa bilan to'g'ri ishlashni tashkil etish bu – majburiyatdan ko'ra ko'proq qobiliyat hisoblanadi. Jamoa ahilligiga asoslangan umumiy maqsadga erishishda har bir xodimning ishtiroki va faolligini to'g'ri baholash, jamoada sog'lom raqobatni shakllantirish uchun sharoitlarni hamda sermahsul va samarali ish muhitini yaratish zarur.

Bank o'z jamoasining faolligi va tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi, mavjud sharoitlarni yaxshilaydi va gender tengligiga hurmatni rag'batlantiradi. Jamoada o'zaro yordam va hurmat asosida muloqot va muloyim munosabatda bo'lish, shaxsiy va ish jarayonidagi bahslarda o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyati jamoaning barcha a'zolarining o'zaro hurmati bilan erishiladi

29. Bank xodimlari o'z tajriba va bilimlarini saxiylik bilan baham ko'rishi, o'rganish va rivojlanishda ochiq va intiluvchan bo'lishi lozim.

5-bob. Yakuniy qoidalar

30. Mazkur Kodeks, shuningdek, unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va yangi Kodeks qabul qilingan kunga qadar amal qiladi.

31. Bank aksiyadorlari, kreditorlari, mijozlari, hamkorlari va boshqa tomonlar (kontragentlar)ning manfaatlarini ko'zlab, mazkur Kodeksda belgilangan qoidalarga muvofiq o'z faoliyatini doimiy nazorat qilib boradi.

32. Bank mazkur Kodeksni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bank Ustaviga, shuningdek, korporativ boshqaruvning xalqaro andozalariga muvofiq takomillashtirib boradi va ko'rib chiqadi.

**Korporativ boshqaruv xizmati rahbari,
Korporativ maslahatchi**



Т. Ли

